

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining
“Mahalla yettiligi”, yoshlar siyosati va ma'naviyat
masalalari departamenti

**Yoshlar ishlari agentligiga,
Respublika Ma'naviyat
va ma'rifat markaziga – qo'shma yig'in,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga,
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga,
Madaniyat vazirligiga**

**“Rivojlanish va tadqiqotlar akademiyasi”
nodavlat ta'lim muassasasiga,
“Liderlar tayanchi” ta'lim sohasiga
yordamchi markazga – ma'lumot uchun**

**“Rivojlanish va tadqiqotlar akademiyasi”
nodavlat ta'lim muassasasi hamda “Liderlar tayanchi”
ta'lim sohasiga yordamchi markazning murojaatida
ko'tarilgan masalani atroflicha o'rganib chiqib,
belgilangan tartibda amaliy yordam ko'rsatish hamda
natijasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish so'raladi
(05.09.2024-y., №50).**

*(qo'shimcha ma'lumot uchun: Rivojlanish va tadqiqotlar
akademiyasi rahbari Javlon Rustamov +99877 177-37-03;
+99888 588-18-88).*

S.Abdunazarovga – nazorat uchun



F. Qosimov

2024-yil “10”-sentabr
№30/1-180
10.09.2024-y.



Rivojlanish va tadqiqotlar akademiyasi

Liderlar tayanchi ta'limi

Manzil: Yunsobod tumani 8-kvartil 34-uy Tel: +99 820 000-84-11; t.me/Rivojlanish_akademiyasi; E-mail: rivojlanishakademiyasi@gmail.com

05.09.2024 yil

№50

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri
A.N.Aripovga

Hurmatli, Abdula Nig'matovich!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”** 2022 yil 28 yanvar, PF-60-sonli farmoning 70-maqsad: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bandida **“Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari, Toshkent shahri, barcha tuman va shaharlarda **“Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!”** shiori ostida yoshlar festivallari va forumlarini tashkil etish”, Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijodiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsad qilingan”.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O'ZBEKISTON — 2030 strategiyasi to'g'risida”** 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoning 11- maqsad: Yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash bandida **“40 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushini kamida **60 foizga** yetkazish,” “Ilmiy, amaliy, innovatsion va startup loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha yillik tanlovlar sonini **20 taga** yetkazish.” “Stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktorantura kvotalari sonini **5 200 taga** yetkazish.”**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O'ZBEKISTON — 2030 strategiyasi to'g'risida”** 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoning 12- maqsad: Barcha yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash bandida **“O'zbekiston Global Innovatsion Indeksda **Top-50 talik** mamlakatlar ro'yxatiga kirishini ta'minlash.”, “Har bir million aholiga to'g'ri keladigan tadqiqotchilar sonini **2 ming nafarga** yetkazish.”.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O'ZBEKISTON — 2030 strategiyasi to'g'risida”** 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoning 31- maqsad: Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish bandida **“Ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o'yinlar hamda chet tillarini o'rganishga jalb etish orqali kamida **2 million** nafar yoshlarning iqtidorini.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘ZBEKISTON — 2030 strategiyasi to‘g‘risida”** 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoning 39-maqsad: O‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni rivojlantirish bandida **“Kitobxon yoshlar sonini 5 million nafarga yetkazish.”**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘ZBEKISTON — 2030 strategiyasi to‘g‘risida”** 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoning 7- maqsad: **“10 ta oliy ta’lim muassasasini dunyoning eng nufuzli “Top-1000” oliy ta’lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish.”** **“Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish.”**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘ZBEKISTON — 2030 strategiyasi to‘g‘risida”** 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoning 10- maqsad: **“Amaliy tadqiqotlarga Davlat budjetidan 4 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirish.”** **“Amaliy tadqiqotlar natijalari asosida 2,5 mingdan ziyod yangi ilmiy ishlanmalar yaratish.”**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘ZBEKISTON — 2030 strategiyasi to‘g‘risida”** 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoning 31- maqsad: Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish. **“Ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o‘yinlar hamda chet tillarini o‘rganishga jalb etish orqali kamida 2 million nafar yoshlarning iqtidorini rivojlantirish.”**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘ZBEKISTON — 2030 strategiyasi to‘g‘risida”** 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoning 38- maqsad: Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash **“Ilmiy va sotsiologik tadqiqotlar bilan jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning barcha asosiy masalalarini qamrab olishga erishish.”**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash MILLIY DASTURI”** 2020-yil 14-dekabrda 781-sonli qarorining **1-bob. Dasturning maqsadlari, vazifalari va asosiy tamoyillari** **“Dasturning maqsadi — kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ijodkorlar, noshirlar va kitob tarqatuvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini izchil va samarali tashkil etish orqali faol kitobxonlar safini kengaytirish, aholi, ayniqsa, yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishdan iborat.”**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash MILLIY DASTURI”** 2020-yil 14-dekabrda 781-sonli qarorining **“uchinchi bosqich — 2024-2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o‘sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.”**

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish, Konstitutsiyasini targ‘ib etish, kuchli tajribaga ega bo‘lgan hamda jahon miqyosida ham o‘zini ko‘rsata oladigan yuksak ma’naviyatli yoshlar sonini ko‘paytirish, yoshlarini birdamlikga chorlash ularga keng imkoniyatlar yaratilganligini ko‘rsatish, yosh tadqiqotchi yoshlarni bir joyga jamlab takliflarini o‘rganib ular asosida kelajakda boshqa tadqiqot ishlarini o‘tkazish maqsadida 2024 yilning sentyabr, oktyabr va noyabr oylarida **“Keling yoshlar birga kitob mutola qilamiz!”** shiori ostidagi **“Uchinchi renessans jadidlari-2024 kitobxonlik forumi”**ni tashkil etish ko‘zda tutilgan. Forum

Respublikamiz bo'yicha Oliy ta'lim muassalarida, madaniyat saroylarida va umum talim maktablarida o'tkazish ko'zda tutilgan. Forumda Respublika bo'yicha ilmiy tadqiqotchi ustozlar, madaniyat vakillari va davlatimiz yetuk darg'alari ishtirokigi ko'zda tutilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib sizdan mazkur kutobxonlik forumini birgalikda ko'tarinki ruhda o'tkazishda hamkorlik qilish va boshqa tashkiliy masalalarni birgalikda yechishga amaliy yordam berishingizni so'raymiz.

Rivojlanish va tadqiqotlar

akademiyasi boshqaruv raisi

Liderlar tayanchi ta'limi markazi rahbari



J.Rustamov

G`.Kadirov

Ijrochi: Jo'rayev I. (97) 049-01-42